

INGLIZ TILI GRAMMATIKASI VA LUG'ATLAR IMLOSI:  
NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI

Kamolova Umida Zafar qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti  
Filologiya fakulteti ingliz tili yo'naliishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini o'rghanish jarayonida grammatik bilimlar va lug'at imlosining o'zaro bog'liqligi, ularning til o'zlashtirishdagi roli va ahamiyati yoritilgan. Grammatika tildagi fikrlarmi to'g'ri ifodalash vositasi sifatida, lug'at imlosi esa yozma nutqning aniqligi va tushunarli bo'lishini ta'minlovchi omil sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada shuningdek, amaliy hayotda (xat yozish, ariza topshirish, suhbatlar) grammatik va imloviy xatolarning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi real misollar orqali tushuntirilgan. Maqolaning asosiy xulosasi shuki: ingliz tilini o'rghanishda grammatikani ham, imloni ham birdek chuqur egallash zarur, chunki bu ikki soha bir-birini to'ldiradi va til o'zlashtirish jarayonini samaraliroq qiladi.

**Kalit so'zlar:** grammatika, lug'atlar, imlo farqlari, imlo xatosi, yozma nuqt

**Kirish.** Ingliz tili bugungi globallashuv davrida dunyoning asosiy aloqa vositalaridan biriga aylangan. O'zbekistonda ham bu tilga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga oshib bormoqda. Ingliz tilini o'rghanish jarayonida eng ko'p e'tibor qaratiladigan ikki asosiy yo'naliish — bu grammatika va lug'at boyligini egallashdir. Ammo ko'pchilik til o'rghanuvchilar bir narsani unutib qo'yadilar: lug'at boyligini bilishning o'zi yetarli emas, ularni to'g'ri imloda yozish va grammatik tuzilma ichida ishlata olish ham muhim ahamiyatga ega.

**Asosiy qism**

**1. Grammatika — tilning tuzilishi**

Grammatika bu tilning "skeleti" desak, xato bo'lmaydi. U so'zlarning qanday tartibda joylashishini, fe'llarning zamon, shaxs va nisbatlariga qarab qanday o'zgarishini, gaplarning qanday qurilishini belgilaydi. Misol uchun, "She go to school" degan jumla grammatik jihatdan noto'g'ri bo'lib, "She goes to school" deb yozilishi kerak. Bu yerda "goes" fe'lining uchinchi shaxs birlik shakli ishlatilmagan. Shunday kichik ko'rindigan xatoliklar, aslida, til egasining bilim darajasini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat — zamonlar tizimi. Ingliz tilida 12 dan ortiq zamon mavjud bo'lib, har biri ma'lum vaziyatlarda qo'llanadi. Misol uchun, Present Perfect zamoni yaqin o'tmishda boshlangan va natijasi hozirda ko'rinish turgan harakatlar uchun ishlataladi: "I have finished my homework."

**2. Lug'atlar imlosi — yozma nutqning asosi**

Lug'atlarni yod olish — til o'rghanishning muhim qismidir. Ammo ularni to'g'ri yozishni bilmaslik, xuddi o'z ismini noto'g'ri yozish bilan teng. Ingliz tilida ko'plab so'zlar talaffuz va yozilishi jihatidan farqlanadi. Misol uchun, "knowledge" so'zining talaffuzi [nɒlɪdʒ] bo'lsa, yozilishida hech qanday "k" tovushi eshitilmaydi. Ammo bu

harf imloviy jihatdan muhim. Ko‘plab o‘quvchilar bu kabi "jim harflar" (silent letters)ni e’tiborsiz qoldiradi.

Shuningdek, Britaniya va Amerika ingliz tili o‘rtasidagi imlo farqlari ham mavjud. Masalan, "colour" (Britaniya) va "color" (Amerika). Til o‘rganishda bir uslubni tanlab, unga sodiq qolish muhim, chunki chalkashlik yuzaga kelishi mumkin.

### **3. Amaliyotda grammatik va imlo xatolarining oqibatlari**

Ko‘pchilik grammatikani faqat test yoki imtihon uchun o‘rganadi. Ammo amaliy hayotda bu bilmalar yanada muhim. Masalan, ish uchun yozilgan inglizcha arizada birgina grammatik yoki imlo xatosi nomzodni salbiy baholanishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, noto‘g‘ri yozilgan so‘z yoki gap nutqni noto‘g‘ri tushunishga olib keladi. "Their", "there", va "they're" so‘zlarini bir xil eshitilishi mumkin, lekin ularning ma’nosini butunlay boshqacha.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘rganishda grammatikani puxta egallash va so‘zlarning to‘g‘ri yozilishiga e’tibor qaratish har qanday til o‘rganuvchi uchun zaruriy shartdir. Grammatika fikrni aniq ifodalash imkonini bersa, imlo esa yozma nutqning aniqligini ta’minlaydi. Shu sababli, ingliz tili o‘rganayotgan har bir kishi bu ikki soha orasida uyg‘unlikni saqlashi, nazariy bilimni amaliyotda qo‘llashi kerak. Shundagina til haqiqiy aloqa vositasiga aylanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azar, B. S. (2002). Understanding and Using English Grammar. Pearson Education.
2. Celce-Murcia, M., & Larsen-Freeman, D. (1999). The Grammar Book: An ESL/EFL Teacher's Course.
3. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
4. Ellis, R. (2006). The Study of Second Language Acquisition. Oxford University Press.
5. Gleason, J. B., & Ratner, N. B. (2012). The Development of Language. Pearson.
6. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge University Press.
7. Nation, I. S. P. (2013). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
8. Swan, M. (2005). Practical English Usage. Oxford University Press.
9. Thornbury, S. (1999). How to Teach Vocabulary. Pearson Education.